

## BOSHLANG'ICH SINIF MATEMATIKA DARSLARIDA INTERFAOL METODLARDAN VA QIZIQARLI O'YINLARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATLARI

**Urazboyeva Sabohat Ortiqboyevna**

Urganch innovatsion university o'qituvchi-stajyori

E-mail: [sabohat@icloud.com](mailto:sabohat@icloud.com)

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqola matematika fanini o'qitishga qo'yilayotgan zamonaviy talablar, o'qitishdan ko'zlanadigan maqsadlar va davlat ta'lim standartlarida belgilangan bilim va ko'nikmalarini zamonaviy metodlar orqali o'quvchiga yetkazish haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** matematika, zamonaviy metod, bilim, aqliy hujum, kompetensiya, didaktik o'yin,

### АННОТАЦИЯ

В данной статье говорится о современных требованиях к обучению математике, целях обучения, передаче учащемуся знаний и умений, предусмотренных государственными образовательными стандартами, посредством современных методов.

**Ключевые слова:** математика, современность, знания, психика, компетентность, дидактическая игра

### ABSTRACT

This article talks about the modern requirements for teaching mathematics, the goals of teaching, and the transfer of knowledge and skills specified in the state educational standards to the student through modern methods.

**Keywords:** mathematics, modern method, knowledge, mental, competence, didactic game.

2017-2021 yillarga mo'ljallangan O'zbekistonni rivojlantirishning Harakatlar strategiyasida o'quvchilarning funktsional savodxonligini rivojlantirish milliy tadbirlar rejasiga kiritilgan. "Ta'lim to'g'risida"gi qonun, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi", "Umumiy o'rta ta'lim davlat ta'lim standartlari" talablarini bajarish, o'quvchilarga matematika fani bo'yicha dars mashg'ulotlari jarayonida chuqur, mazmunli bilim va amaliy ko'nikmalar berish uchun ta'lim-tarbiya berishning turli usul va metodlardan foydalanishga to'g'ri keladi. Shunga ko'ra, juftlikda va guruhlarda ishlash, bahs-

munozara o'tkazish, didaktik o'yinlar o'tkazish kabi usullardan foydalanib mashg'ulotlar tashkil etilsa, maqsadga muvofiq bo'ladi. Matematikadan o'quvchilarda tayanch va fanga oid kompetensiyalarni shakllantirishda katta qiyinchiliklar vujudga kelmaydi.

Masalan, tayanch kompetensiyalardan biri "Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish hamda foydalanish kompetensiyasi" fanga oid kompetensiyalar bilan uyg'undir. Matematika ko'proq hisoblar, mantiqiy fikrlashni talab qilganligidan kommunikativ kompetensiyaning yozma nutqini rivojlantirish qismiga ko'proq e'tibor berilgan.

Mashg'ulotlarda matematik atamalar konkursi, savol-javoblar, aqliy hujum kabi metodlar qo'llanilib kommunikativ kompetensiyalar shakllantirilgan.

Matematik ta'limga kompetensiyaviy yondashuv o'quvchilarda kasbiy, shaxsiy va kundalik hayotda uchraydigan holatlarda samarali harakat qilishga imkon beradigan amaliy ko'nikmalarni shakllantirish va rivojlantirishni hamda matematik ta'limning amaliy, tatbiqiy yo'nalishlarini kuchaytirishni nazarda tutadi. Inson o'z hayotida shaxsiy, ijtimoiy, iqtisodiy va kasbiy munosabatlarga kirishishi, jamiyatda o'z o'rnini egallashi, duch keladigan muammolarning yechimini hal etishi, eng muhimi, o'z sohasi, kasbi bo'yicha raqobatbardosh bo'lishi uchun zarur bo'lgan tayanch kompetensiyalarga ega bo'lishi lozim.

Bundan tashqari, ta'limda har bir o'quv fanini o'zlashtirish jarayonida o'quvchilarda, shu fanning o'ziga xosligi, mazmunidan kelib chiqqan holda, sohaga tegishli xususiy kompetensiyalar ham shakllantiriladi.

Matematika faniga oid kompetensiyalar -o'quvchining ta'lim jarayonida olgan bilimlarini amaliyotga tatbiq eta olish hamda mantiqiy, metodologik, qiyoslash, idrok qilish, tatbiq etish, o'z-o'zini baholash faoliyati kabi bilimlarni o'z ichiga olgan bilimlar yig'indisidir.

Jumladan, mazkur kompetentlilik doirasida o'quvchida faktlarni asosiylaridan ajrata olish va xulosa chiqarish malakasi shakllanadi. O'quvchilarni darslardagi tushunchalarni puxta o'zlashtirishida darsga bo'lgan qiziqish muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun o'qituvchi oldida o'quvchilarni darsga qiziqitira olish muammosi turadi. Matematika darslariga o'quvchilar qiziqishini oshirish hamma sinflarda ham amalga oshirilishi kerak bo'ladi. Buning uchun esa o'qituvchi ijodkor bo'lib, bolalarning yoshi, amaliy bilim va ko'nikmalarini hisobga olib, ayniqsa bolalarning qabul qilish darajalarini e'tiborga olib, didaktik o'yinlarni tanlashi hamda tayyorgarlik qilishi yaxshi bo'ladi. [4:145]

Matematika darslarida foydalanishi mumkin bo'lgan o'yinlar qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin: Matematika darslarida: "Ishchanlik o'yinlari", "Matematika darslarida klister", "Matematika darslarida Pazl", "Matematika darslarida

Sinkveyn”, “Loto”, “Domino” o‘yini va boshqalar. Matematika darslarida qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan o‘yinlar ichida “Domino” o‘yining imkoniyatlari boshqalariga nisbatan katta bo‘lib, uni arifmetika, algebra va geometriya mashg‘ulotlarida qo‘llash mumkin.

Matematika darslarida Pazl (“Bo‘laklardan butunni tuz”) metodi. Pazl (inglizcha puzzle - topishmoq, boshqotirma) - rasmni uning bo‘laklari yordamida tiklashdan iborat bolalar o‘yining nomi. Shuning uchun bu metod nomini o‘zbek tilida “Bo‘laklardan butunni tuz” deb ham atash mumkin.

O‘tilgan mavzuga oid asosiy jumla, formula, tenglama, chizma va boshqa ko‘rinishidagi asosiy ma‘lumotlar qog‘ozga yozilib, so‘ng bir nechta bo‘laklarga bo‘linib aralashtirib yuboriladi. O‘quvchilar bu bo‘laklar ichidan faqat bitta ma‘lumotga moslarini topib, uni tiklaydilar. Bu metod o‘quvchilarda ziyraklik, topqirlik, diqqatni to‘plash, tahlil va sintez qilish kabi qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi. Uni yakka tartibda ham, sinfni guruhlariga bo‘lib ham o‘tkazish mumkin.[3:154]

Msol. Boshlang‘ich sinf geometriya darsida foydalanish mumkin bo‘lgan mavzulardan: “To‘g‘ri chiziqlar”, "Uchburchaklar" va "Kesma" mavzulari o‘tib bo‘linganidan so‘ng o‘quvchilarga varaqchalar (kartochkalar) dan iborat to‘plam taqdim qilinadi. Bu to‘plamlarda turli hil ma‘lumotlar berilgan bo‘ladi.

1-kartochkada: ta‘rifning yozma bayoni,

2-kartochkada: ta‘rifga mos rangli chizmalar,

3-kartochkada: Ta‘rifga oid formulalar.

Topshiriq: o‘quvchilar (yoki guruhga) teorema beriladi va taqdim qilingan to‘plam ichidan faqat o‘z ta‘rifi bo‘yicha ma‘lumotlarni to‘la yig‘ish vazifasi topshiriladi.

Xulosa qilib aytganda, aqliy o‘yinlar darsning maqsadini, har bir mashqning maqsad va vazifalarini yaxshiroq tushunib olishga yordam beradi. Shuningdek, mazkur usul ta‘limning ko‘rgazmaliligini, o‘qituvchining nutqini va bolalar harakatini o‘z ichiga oladi, buning natijasida idrokda (ko‘rish, eshitish, teri sezgisi belgilarida) birlik tug‘iladi. Bu esa o‘qituvchining aytganlarini o‘quvchilarning o‘ylab olishiga va ularni ifodalab berishlariga, ya‘ni didaktik o‘yinlar qoidalarini o‘quvchilarning o‘zlari bajarishlariga imkon beradi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. Mirziyoyev. Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent, O‘zbekiston, 2017
2. Xudoynazarov E. Boshlang‘ich sinflarda og‘zaki mashqlardan foydalanish metodikasi. Urganch, 2011-yil.
3. S.Alizonov. Matematika o‘qitish metodikasi. Toshkent. "O‘qituvchi".-200
4. Jumayev M.E, Tadjiyeva Z.G‘. Boshlang‘ich sinflarda matematika o‘qitish metodikasi. (O.O‘.Y uchun darslik) Toshkent “Fan va texnologiya” 2005-yil.
5. Bikbayeva N.U, Yangibayeva E, Giffanova K.M. 4-sinf matematikasi. “O‘qituvchi” Toshkent, 2011-yil.
6. Demidov V.P., Saransev G.I. Metodika prepodavaniya matematiki. Ì., "Prosveshenie", 1978